ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

5/1-сан

Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.

Нөкис

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Achilov M.N. Tibbiy ta‘limda lingvistikaning o‘rni va o‘qitish metodikasi 7
Shukurjanova S.A. Farmasevtika sohasida o’zbek tilining o’rni 12
Matyusupova Sh.B. Lotin tilini o’rganishda samarali oflayn usullarini o’rganish 18
Ibragimov F.B. Rus tilini o’qitish metodikalaridan foydalanish 24
Ergasheva F.A. Kasbiy lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda lingvokognitiv yondashuvning ahamiyati 29
Mustafokulova X.A. Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash 34
Isanova Z. Ko’p tillik kompetensiya va uning mazmuni 40
Юлдашева Ф.Т., Темирова Ш.Г. Современные методы и подходы в изучении языка 46
Абдужалилова Н. А. Формирование компетенций студентов медицинского ВУЗа при изучении латинского языка 51
Камолова Г. О некоторых сложностях изучения русского языка иностранными учащимися 61
Muxammedova O.A. Development of the form of communicative competences of the russian language system in medical education 66
Abdullaeva O.I., Halimov M., To’ychiyev D.E. Exploring the efficacy of interactive methods in teaching English 74
Deleverkhanova L.K. Thematic classification of foreign language inclusions in internet media of tourism industry: ethno-tourism 80
Shirinqulova Sh. M. Systematic linguistic synthesis of medical terms and their place in terminology 85
Karamatova Z. F. The connection and transformation of elegy and marsiya with poems in the form of memoirs 93
Mukhamedjanova S., Gulov M. Different approaches to second language in the process of teaching 99
Normuminova X.A. The use of artificial intelligence in teaching a foreign language 104
Ibragimova Z.N. Interactive methods of teaching english 111
Ashurova F.L. The functions of aphoristic units in the language 117
Abdazova A.R. The role of english terminology in the expression of environmental information in the mass media 125

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Toshmatova Sh., Ernazarov Z.M. Zamonaviy biologiya fanini o‘qitish metodikasi 136
Жўрабоев М. Таълимни модернизация қилишнинг ижтимоий-иқтисодий омиллари 140
Tolipova O.I. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining kreativligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 148
Shermatova Yo.S. Bo’lajak logopedlarning nutqida nuqsoni bo’lgan bolalarning ota-onalari bilash ishlashga o’rgatish 153
Boltayeva R.A., Bekmirzayev M.X. Oliy ta’lim muhitida pedagogik-psixologik diagnostikaning o‘rni 158
Aburaximov Sh.A. Bo’lajak o’qituvchilarda pedagogik mahorat va kreativlikni rivojlantirish yo’llari 163
Abdalova S.R. O‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta’limning o‘rni 167
Bekimbetova G.N. O’quv adabiyotlarda tabiiy xom ashyo va ularning qayta ishlash mahsulotlarining yoritilishi 173
Davronova M.U. Bo‘lajak mutaxassislarni loyihalash kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi 178

O‘QUVCHILARNING O‘QUV-BILISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI

Abdalova S.R.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Tayanch so‘zlar: bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, mustaqil ta’lim, kasbiy, individual, metod, vosita, mustaqil fikrlash, qobiliyat, jarayon, hodisa, ob’ekt, tizimlashtirish va boshqalar.

Ключевые слова: знание, умение, компетентность, компетентность, самостоятельное обучение, профессионал, личность, метод, инструмент, самостоятельное мышление, способность, процесс, событие, объект, систематизация и др.

Key words: knowledge, skill, competence, competence, independent learning, professional, individual, method, tool, independent thinking, ability, process, event, object, systematization, etc.

Mamlakatimiz ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ya’ni qabul qilingan qaror va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta’sir qilishi shubhasizdir. Ular talabalarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda, ularning intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Talabalarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta’limni tashkil etish, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirib borish sharoitida faoliyat yuritish jamiyat rivojida asosiy kuch hisoblangan yetuk mutaxassislarni tayyorlash masalasiga ijobiy yondashuvni talab qiladi. Mustaqil ta’lim olish jarayonini faollashtirish, talabalarda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan intilish, mavzuga oid ma’lumotlarni o‘qib o‘rganish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish zarurligi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim.

Mustaqil ta’lim: talabalarda shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon qilishga; bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga; ularning o‘qitiladigan fanlarga oid bilimlarini rejalashtirishga; nazorat kilish uchun ongli ravishda foydalana bilishga; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Mustaqil ish – bu shunday bilish o‘quv faoliyatiki, bunda talabaning fikrlash ketma-ketligi, uning aqliy va amaliy harakatlari talabaning o‘ziga bog‘liq hamda uning o‘zi tomonidan aniqlanadi. Darsda mustaqil ishlarning amalga oshirilishi talabaning erkinligini ta’minlaydi, ishchanlik qobiliyatini, diqqatini tarbiyalaydi, xulqini yaxshilaydi. Mustaqil o‘ylashga o‘rgangan talabalar o‘zlari bilimlarni egallashi hamda muammolarni tahlil qila olishi mumkin.

Shuning uchun talabalarning fikrlash operatsiyalari (tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, klassifikatsiyalash va b.q)ni shakllantirish, ularning bilish faoliyatiga qiziqishlarini, ularning maqsadga erishishda faolligi, mustaqilligi, tirishqoqligini stimullashtirish, talabalarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishlarini muntazam nazorat qilish, darslarda talabalar mustaqil ishlari elementlarini keng joriy etish bilan o‘qitish metodlarini xilma-xil qilish, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash shakl, metodlarini takomillashtirish, ularga individual yondashuvni amalga oshirish kabilar bugungi kunning dolzarb vazifalaridir.

Mustaqil ta’lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog‘liqligi sababli unga berilgan ta’rifni ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiq: “Mustaqil fikrlash - insonning o‘z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o‘z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo‘l, metod, vositalar yordamida, o‘zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo‘lgan aqliy faoliyatidir”.

O‘qituvchi o‘z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirishi va bu maqsadga erishishi uchun quyidagi shartlarga amal qilishi kerak: talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga ola bilish; talabalar bilan emmotsional aloqa o‘rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta’sir etish; o‘qituvchi umumiy pedagogika, psixologiya, mehnat gigienasi va fiziologiyasi, texnika va texnologiya fanlari bo‘yicha savollar ro‘yxatini mustaqil o‘rganib chiqishlari, o‘zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali metodlari, yo‘llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik ob’ektlarni to‘g‘ri tanlab faoliyat ko‘rsatishi, aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o‘z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, o‘z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etishi va ma’lum maqsadga yo‘naltirish zarur.

Kutilayotgan natijalar: talabalar qila olishi lozim: kitob bilan ishlash (darslik, fan matnlari, jadval va b.q.); reja bo‘yicha ishlash; namuna bo‘yicha

ishlash, standart ko‘rinishidagi masalalarni yechish; masalalarni yechish rejasini tuzish; natijalarni tahlil qilish; eski va yangi material o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish; o‘z-o‘zini nazorat qilishni amalga oshirish; shaxsiy tashabbusi bo‘yicha ishlash.

Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo‘ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Mustaqil ta’lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliligi hamda o‘quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog‘likligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir.

Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilinsa, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda o‘tiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o‘quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliligi, topshiriq hamda vazifalarning ko‘p qirraliligi, o‘zaro bog‘likligi muhim o‘rin tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta’lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e’tibor qaratish zarur. Talabalarning egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishini, ular ijtimoiy foydali, targ‘ibot-tashviqot ishlarida ishtirok etishini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Talabalar darslarda olgan bilim, ko‘nikma va malakalaridan amaliy faoliyatda foydalanadi; talabalar faoliyatning kommunikativ, analitik, loyihali, ijodiy tiplarini o‘zlashtiradi; talabalar turli murakkablikdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi; talabalarda turli tasavvurlar shakllanadi; lug‘at bilan ishlash ko‘nikmalari egallanadi, kerakli o‘lchashlar o‘tkaziladi, olingan natijalar tahlil qilinadi; jamoada talabalarning xulqi o‘zgaradi: ular boshqalarning fikrini eshita boshlaydi, qo‘rqmasdan o‘z shaxsiy fikrlarini ayta oladi.

Umuman olganda o‘qituvchining pozitsiyasi o‘zgaradi. U talabaga tayyor bilimlarni bermaydi, aksincha talabalarni tashabbuskorlik va mustaqillik ko‘rsatishga undaydi. O‘qituvchi har bir talabaning qiziqishlari va o‘z qobiliyatlarini amalga oshirish uchun mustaqil faoliyatini tashkil etishi lozim.

Mustaqil ishlarni bajarishda rejalashtiriladigan natijalar uchta darajada namoyon bo‘ladi. Birinchi darajaga mos keladi: mustaqil ishlar orqali o‘qishga motivatsiyani shakllantirish, faoliyat metodlarini egallash va ularni tashkil etish, topshiriqlarni bajarishning turli metodlari va vositalarini bilish, talabalarning qobiliyat nishonalarini rivjlantirish. Ikkinchi darajaga mos keladi: talaba yoshiga mos holda topshiriqni mustaqil bajarish, fikrini ayta olish, tahlil qilish, umumlashtirish, klassifikatsiyalash, muhokama qilish,

shaxslararo o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash. Uchinchi darajaga mos keladi: o‘rgangan metodlarni mustaqil qo‘llay olish, o‘z pozitsiyasini asoslay olish, vaziyatni va olingan natijani baholay olish.

Mustaqil ishlarni o‘quv topshiriqlar orqali amalga oshirish uchun qulay ta’limiy muhitlarni yaratish lozim, bu quyidagilarni ta’minlaydi: ta’limiy dasturlarni rejalashtirishda talabalar va ularning ota-onalari bilan o‘qituvchilarning o‘zaro munosabati; talabalarning individual ta’lim marshrutlarini bajarish; to‘garak, seksiyalar kabilar orqali talabalarning qobiliyatlarini ko‘rsatish va takomillashtirish; intellektual va ijodiy xarakterdagi musobaqalarni uyushtirish; mustaqil ishlar davomida innovatsion ta’limiy va tarbiyaviy texnologiyalarni qo‘llash; o‘qituvchilar yordamida talabalarning yuqori mustaqil faoliyat natijaviyligiga erishish.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda mustaqil ishlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlab o‘tamiz: talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish; faoliyatning har xil turlariga jalb etilganligi; faoliyat metodlarini, individual faoliyatini amalga oshirish qobiliyatlarini shakllantirish; bilishga qiziqishlarini shakllantirish; faoliyatni amalga oshirishda mustaqillik berish; tahlil qilish, umumlashtirish, klassifikatsiyalash, asoslash, o‘xshashlarni topish kabi harakatlarni egallash; maqsadni, asosiy vazifalarni aniqlash ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, ular asosida taxminlarni ilgari surish, harakat sxemalarini tuzish, olingan natijalarni anglash va ularni tahlil qilish; talabalarni turli axborotlar bilan ishlashga jalb etish; qulay hayotiy va ijtimoiy qoidalarni qo‘llab-quvvatlash; talabalarning ehtiyoji, qobiliyatiga muvofiq faoliyat mazmunining adaptivligi; faoliyatning variativligini taqdim etish.

Ta’lim jarayonida ijodiy muhitni vujudga keltirish uchun o‘rganiladigan mavzu mazmuniga bog‘lik holda quyidagi didaktik omillarni e’tiborga olish zarur deb hisoblaymiz: darsda talabalarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil holda yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash vaziyatini vujudga keltirish maqsadida an’anaviy o‘qitish metodlari bo‘lgan og‘zaki bayon, ko‘rgazmali va amaliy metodlari bilan bir qatorda mustaqil ish, muammoli, mantiqiy o‘qitish metodlaridan foydalanish; mavzu mazmunini hisobga olgan holda o‘quv muammolarini vujudga keltirish orqali avval o‘rganilgan ob’ektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini odatiy va tanish vaziyatdagi muammolarni anglash hamda uni hal etish yo‘lini tavsiya etish, ushbu omil o‘qitish jarayonida muammoli o‘qitish metodi ustuvorligiga asoslanadi; o‘quv muammolarini hal etish orqali tanish ob’ektning yangi xususiyatlarini topish, talabalar avval o‘rganilgan ob’ektga xos yangi xususiyatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan omilda o‘qitish jarayonida mantiqiy metodlar ustuvorligiga tayanadi;

tuzilish va funksional qonuniyatiga asosan tushunchalar o‘rtasidagi aloqalar, sabab va oqibatlarni aniqlash, ushbu omil o‘qitish jarayonida muammoli o‘qitish va mantiqiy metodlarni mujassamlashtirishni taqozo etadi; o‘qitish jarayonida talabalar tomonidan darsda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish uchun turli variantlar asosida fikr yuritishga imkon yaratish, mazkur jarayonda og‘zaki, ko‘rgazmali, muammoli o‘qitish va mantiqiy metodlarni mujassamlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish uchun quyidagi ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishi lozim: o‘rganiladigan mavzu mazmunidagi asosiy tushunchalar va atamalar, ular asosida shakllantirilgan tayanch va xususiy kompetensiyalarni aniqlash; mavzu mazmunini qayta ishlash, uni muammoli tarzda induktiv yoki deduktiv yo‘nalishda o‘rganishni belgilash; muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish yo‘llarini belgilash va shu asosda muammoli o‘quv topshiriqlarini tuzish; darsning har bir bosqichi: avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, o‘tgan mavzuni yakunlash, yangi mavzuni o‘rganish va mustahkamlash, yangi mavzu bo‘yicha talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash, yangi mavzuni yakunlashda ijodiy muhitni vujudga keltirishni loyihalash; o‘rganiladigan mavzu mazmuniga muvofiq o‘qitish vositalari, metodlarini tanlash, bunda o‘qitishning zamonaviy vositalari va faol metodlarning ustuvorligiga erishish yo‘llarini belgilash; darsda ta’lim mazmuni, o‘qitish vositalari va metodlarini uyg‘unlashtirish orqali talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, bilimlarni ongli o‘zlashtirishga erishish yo‘llarini belgilash; darsda yuqorida qayd etilgan ijodiy muhitga zamin tayyorlaydigan talabalarning mustaqil ishlariga sarflanadigan vaqtni belgilash va darsning texnologik xaritasini tuzish; texnologik xarita asosida darsni olib borishga erishish, vaqtdan unumli foydalanish; zarur hollarda ta’lim jarayoniga muayyan o‘zgartirish kiritish uchun qo‘shimcha topshiriqlar va tarqatma materiallar tayyorlash; mavzu mazmuniga oid qiziqarli shu bilan bir qatorda muammoli analogiyalardan foydalanish yo‘llarini belgilash; darsda ijodiy muhitni yaratish bo‘yicha olib borilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusida pedagogik faoliyati hamda talabalarning o‘quv-bilish faoliyatiga muayyan o‘zgartirishlar kiritish yo‘llarini belgilashi zarur.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish mazmuni, shakl va metodlari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish muhim hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim: talabalar mustaqil ishini

tashkil etish mazmuni, holati va ularning tarkibiy qismlarini nazariy jihatdan tahlil qilish; talabalar mustakil ishining konseptual muammolari hamda o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini o‘rganish; talabalar mustaqil ishining nazariy tipologiyasini aniqlash; talabalar mustaqil ishini tashkil etishning shakl va metodlarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash; talabalar mustaqil ishini tashkil etish bilan bog‘lik muammoli topshiriqlarni ishlab chiqish; talabalar mustaqil ishini tashkil etish metodikasi asosida amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish.

Talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish o‘quv jarayonining muhim omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida talabada mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, talabada jarayonlar va hodisalar, ob’ektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o‘rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarning dars ishlanmasi hamda texnologik xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Har bir mashg‘ulot bo‘yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o‘quv jarayonini to‘laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdalova S.R. Mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2009, - 100 b.

2. Matnazarova K.O. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda o‘qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent:. – 2018. – B.460.

3. Nishonova Z. Mustakil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalk ta’limi. - Toshket, 2001.- №1.- B. 38 - 40.

4. Tolipova J. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish // Xalk ta’limi. - Toshkent, 2002. - № 4. - B. 102 - 103 .

5. TolipovO‘. Talabalar mustaqil ishlarida o‘qitish vositalari // Xalk ta’limi. - Toshkent, 2000. - №1.- B. 45 - 47.

6. Qo‘ysinov O.A. Mustaqil ta’lim olish jarayonida talabalarning ijodiy tafakkurlarini shakllantirish. / Ta’lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005. - B.98- 99.

7. Qo‘ysinov O.A. Talabalarning mustaqil bilim olish mahorati darajalarini aniqlash omillari // Ta’lim texnologiyalari. - Toshkent, 2005. - №2. - B. 21-23.

8. Yunusova Sh. Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini shakllantirish // Xalk ta’limi. - Toshkent, 1997. - №5. - B. 53 – 55

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish, bunda mustaqil ta’limning o‘rni va roli, mustaqil ishlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususyaitlari, o‘quv jarayonida ijodiy muhitni yaratish kabilar haqida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о формировании учебных компетенций студентов, месте и роли самостоятельного обучения, особенностях организации самостоятельной работы, создании творческой среды в образовательном процессе.

SUMMARY.

This article talks about the formation of students' learning competences, the place and role of independent education, the specific features of organizing independent work, and the creation of a creative environment in the educational process.